VIRTUAL TIL DARSLIKLARI: TALABALARNING JALB QILINISHI VA MOTIVATSIYA

Abduraupova Gulhayo Ulug‘bek qizi
ISFT instituti Samarqand filiali magistranti
+998945899028
Email: abduraufovagulhayo1@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lgan virtual ta’lim tizimida yoshlarni jalb qilish va ularning motivatsiyasini oshirish masalalari yoritilgan. Maqolada virtual ta’limning afzalliklari, mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish usullari haqida aniq dalillar keltirilgan. Tadqiqot natijalari virtual ta’lim samaradorligini oshirishda motivatsiyaning muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Intensiv metodika, chet tili, o‘zbek tili, til o‘rganish, kommunikativ yondashuv, til kompetensiyasi, zamonaviy texnologiyalar, multimodal o‘qitish, o‘qituvchi roli, metodik integratsiya.


Bugungi globalizatsiya sharoitida dunyo mamlakatlari o‘rtasida madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy hamkorliklar jadal sur’atlarda kengayib bormoqda. Bu jarayon til va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishni, shu bilan birga til o‘rganish va o‘rgatish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tilini xorijliklarga, xorijiy tillarni esa mahalliy o‘quvchilarga samarali o‘rgatish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda ushbu sohada intensiv metodik yondashuvlar keng ommalashmoqda. Ushbu maqolada intensiv metodika tushunchasi, uning afzalliklari, o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni hamda amaliyotdagi natijalari ilmiy asosda yoritiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida onlayn darsliklar muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat bilim berish, balki global muloqotni ta’minlash imkonini ham yaratadi. Onlayn platformalar orqali o‘quvchilar turli mamlakatlardan bo‘lgan insonlar bilan tanishish, fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshirib, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, ko‘plab onlayn darsliklarda baholash tizimi mavjud bo‘lib, har bir topshiriqdan so‘ng o‘quvchilarga ball beriladi. Bu esa rag‘batlantirishning samarali usullaridan biridir. O‘qituvchi tomonidan beriladigan muntazam fikr-mulohazalar (feedback) orqali o‘quvchilar o‘z bilim darajasini aniqlab boradi. Shuningdek, darsliklarga qiziqarli kontent va videomateriallar kiritilishi o‘zlashtirish samaradorligini yanada oshiradi. Texnologiyalar intensiv metodlar bilan birga task-based learning (vazifaga asoslangan o‘qitish), flipped classroom (teskari sinf), va kommunikativ yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilsa, bu o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtiradi va real til muhitida erkin foydalanishga tayyorlaydi. Shuningdek, multimodal o‘qitish yondashuvi ham o‘z samarasini bermoqda. Ya’ni, bitta mavzu nafaqat og‘zaki tushuntiriladi, balki audio, video, matnli va vizual materiallar orqali mustahkamlanadi. Bunday o‘qitish uslubi o‘quvchilarning turli tipdagi bilim qabul qilish usullariga mos keladi va ko‘proq til faoliyatlarini jalb qiladi. Har bir o‘quvchi o‘qishni boshlashdan oldin aniq maqsad qo‘yishi esa natijaga tez va samarali erishishga yordam beradi. Lee ta’kidlaganidek, “Mobil ilovalar, onlayn til platformalari va sun’iy intellektga asoslangan o‘quv tizimlari til

o‘rganish jarayonini shaxsiylashtirilgan va moslashuvchan shaklga olib chiqadi”. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini istalgan joy va vaqtda mustaqil ravishda takrorlash, baholash va chuqurlashtirish imkonini beradi.



Shu bilan birga, virtual ta’limning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Eng asosiy muammolardan biri — diqqatning tez chalg‘ishidir. Ijtimoiy tarmoqlardan keladigan xabarlar va doimiy eslatmalar o‘quv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, internetdagi uzilishlar, texnik nosozliklar, ovoz va tasvir sifati bilan bog‘liq muammolar ham ta’lim sifatiga ta’sir qilishi mumkin.

Yana bir muammo — darslarning uzoq davom etishi va bir xilligi o‘quvchilarda zerikish hissini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, mustaqil o‘qiyotgan o‘quvchilar uchun jonli muloqotning yetishmasligi motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun turli yechimlar taklif etiladi. Jumladan, interaktiv o‘yinlardan foydalanish samarali usullardan biridir. Masalan, “edugames.uz” kabi platformalarda turli fanlarga oid qiziqarli o‘yinlar orqali o‘quvchilarni jalb qilish mumkin. Shuningdek, xorijiy ta’lim platformalari orqali ham bilimni mustahkamlash imkoniyati mavjud.

Asosiy va hamma uchun mos keladigan metodlarlar biri, online dars boshlanishidan oldin kelishib olish, ya’ni nimalar o‘tib olishni kelish va aniq maqsadga yetgandan so‘ng, dars so‘ngida faol o‘quvchilar aytiladi va ular uchun stiker yoki belgi sifatida kichik narsalar beriladi. Bu holat 1 oy davom etadi va oy oxirida barcha yig‘ilgan stikerlar hisoblanadi. So‘ng eng yaxshi o‘zlashtirgan va ko‘p yig‘ilgan stikerlar inobatga olinib, ular uchun sovg‘alar va kerakli kitoblar taqdim etiladi.

Bunday metodlarning yana biri o‘quvchilarning bilimini oshirish uchun gapiriladigan mavzularda ancha qo‘l keladi. Har bir o‘quvchi uchun random orqali raqam tanlanadi va kimning raqami 1 kelsa, shu o‘quvchi birinchi bo‘lib gapiradi va keyingi o‘quvchiga ulanib ketadi. Hamma gapirib bo‘lgandan so‘ng, ular bir-birlariga fikrarini bildirishi kerak, asosan xato

va kamchiliklar, yaxshi tomonlar gapiriladi. Bu esa baholash va to‘g‘ri tahlil qilishni o‘rgatadi va hamma uchun qiziqarli bo‘ladi, qiziqish bilan bir-birlarini tinglashadi. So‘ng oxirida ball qo‘yishadi.

Yana bir metod o‘quvchilar uchun juda zo‘r ta’sir qiladi, ya’ni har biri o‘zlari uchun mavzu olishadi va u haqida o‘z fikr va mulohazalarini aytishadi. Bu jarayon taxminan mavzuga qarab 5-10 daqiqa davom etadi. Brown o‘z tadqiqotida shunday fikr bildiradi: “Qisqa, ammo intensiv darslar orqali o‘quvchilar tilni real holatlarda tezroq qo‘llashga o‘rganadi”. Bu metodikaning eng muhim xususiyati shundaki, darslar o‘quvchilarning doimiy faol ishtirokini ta’minlaydi, ularni real muloqotga jalb etadi va shaxsiy qiziqishlarini uyg‘otadi.

Biroq faqat o‘yinlarga tayanish yetarli emas. O‘quvchilar uchun turli xil metodlarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi bilan muntazam muloqot qilish, individual o‘quv rejalarini tuzish va ishonchli manbalardan foydalanish bilimni chuqurlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, qisqa va tushunarli darsliklar taqdim etilishi o‘quvchilar uchun yanada qulaylik yaratadi.

Motivatsiya tizimi esa ayniqsa mustaqil o‘qiyotganlar uchun muhim omillardan biridir. Zamonaviy sharoitda insonlarni faqat “dangasa” deb baholash to‘g‘ri emas, chunki hozirgi texnologik muhit diqqatni tez chalg‘itadigan omillarni ko‘paytirgan. Shu sababli, ta’lim jarayonida motivatsiyani oshirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda, virtual ta’lim samaradorligini oshirish uchun innovatsion metodlar, interaktiv yondashuvlar va kuchli motivatsion tizimlarni uyg‘unlashtirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 1.Brown, T. (2020). Immersive Language Programs and Learner Outcomes. International Journal of Language Learning, №2, 60–70-bet.
2. Lee, M. (2022). Technological Integration in Intensive Language Courses. Educational Technology & Practice, №1, 10–18-bet.
3. Hasanov, D. (2020). Til o‘rganishda multimodal yondashuvlar. Pedagogika va Psixologiya, №5, 15–19-bet.
4. Jones, R. (2019). Language Input and Output in Accelerated Learning. Applied Linguistics Review, №6, 33–40-bet.
5. Suleymanov, T. X. "THE POETICS OF SOUTHERN GOTHIC AND ITS SENSORY DIMENSION IN WILLIAM FAULKNER’S WORKS." Multidisciplinary and Multidimensional Journal 5.3 (2026): 115-119.